

***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***  
**DESTRUKTIV XULQ ATVORLI BOLALAR BILAN ISHLASHDA**  
**PSIXOLOGIK YONDASHUV**

***Arziyeva Matluba Ibraximovna***

*Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 37-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oiladagi tarbiya, ota-onaning farzandlarga ko'rsatadigan ta'siri, ta'lim-tarbiya tizimidagi hamkorlik, ota-onalar uchun tavsiyalar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'smirlik, biologik, fiziologik, psixologik, ijtimoiy yondoshuv, inqirozlar, patologik o'zgarishlar, referent guruhlar, norasmiy va kriminal guruhlar.

Insonni biologik, fiziologik psixologik o'sishining eng murakkab bosqichlaridan biri o'smirlik yosh davridir. Ushbu yosh davri eng murakkab o'zgarishlar, qayta qurishlar davri. Shu bilan birga og'ir inqirozlar, salbiy xolatlar, kechinmalar davri hamdir. Bolalarning balog'at yoshi biologik jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega. Bu davr 11- yoshdan 14,15 yoshgacha davom etadi. Ana shu yillar davomida o'g'il-qizlar jismoniy jihatdan tez yetiladi. Butun a'zolarida keskin fiziologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Unda o'pka, yurak, jigar, taloq, buyrak jismlari kattalashadi. Bundan tashqari gavda tuzilishlari ham o'zgaradi. Qo'l – ayoq o'sib, xatto ota – onaning ko'ziga beso'naqay ko'rindi. Lekin o'smirda qon tomirlari kengayishi boshqa a'zolar o'sishidan orqada qoladi, natijada qon tomirlarda qon bosimi ortadi. Bu esa unda noxushlik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Ana shunga o'xshash o'zgarishlar ko'pincha o'smir ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. U tajangroq, ba'zida xuda behudaga injiqlik qiladigan, serzarda, gap ko'tarmas bo'lib qoladi. Shunday paytlarda ayrim ota – onalar boladagi o'zgarishini kuzatib, uning yurish turishiga razm solib, so'ng to'g'ri muomala qilish o'rniga gohida "ey muncha qo'pol beo'xshov bo'lib ketyapsan, xech narsaga qovushmaysan" deb uni ranjitib qo'yadilar. Ma'lumki affektiv qo'zg'oluvchanlik

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

ko‘p jihatdan o‘s米尔lik davriga to‘g‘ri keladi. Bu xolat me’yorda ham kuzatiladi. Uning vujudga kelishi bu yosh fazasining vegetativ – endokrin jixatdan qayta qurilishi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu yosh davr xam biologik ham psixologik tomondan o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi. Bu o‘s米尔 yosh davrining fenomini hamdir.



Biologik o‘zgarishlar endokrin sistemasining qayta qurilishi bo‘lsa, psixologik o‘zgarishlar portlash va agrasessiyaga moyil bo‘ladigan affektiv qo‘zg‘oluvchanlikdir. Bu holat ko‘pincha ijtimoiy adabtatsiyaning buzilishini, jumladan qonunbuzarlikni sabablaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ammo psixik sog‘lom, atrof – muhitning qulay sharoitlarida tarbiyalanayotgan o‘s米尔arda affektiv qo‘zg‘oluvchanlik adabtatsiyaning buzilishiga olib kelmaydi. Statistikaning ko‘rsatishicha har bir o‘ninchи jinoyat voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinar ekan. Bu faktning ma’nosi faqat qonunbuzarlar tomonidan yetkazilgan zarar bilan aniqlanmaydi albattda. O‘s米尔 shaxsi xarakteridagi og‘ishlarni shakllanishi ularning tiplarini aniqlash tibbiy psixologik va tibbiyot pedagogik ishlarni aktiv olib borish zarurdir. Bizning asosiy maqsadimiz aziz o‘quvchilarga tarbiyasi “qiyin” o‘s米尔lar xarakteridagi xarakter aktsentuattsiyasing va uning tiplari o‘s米尔lik davridagi deviant xulq – atvor va uning klassifikatsiyasi tarbiyasi qiyin o‘s米尔lar bilan ishslashning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikrlar yuritamiz.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Xulqi og'ishganlikni analiz qilishda biz avvalo mediko – psixatrik tomoniga alohida e'tibor berishimiz kerak bo'ladi. Chunki bu bolaning xarakter xususiyatlarining o'zgarishiga olib keladi. Avvalo psixoteriya klinik fan bo'lib, ruhiy kasalliklar sababi kechishi, davolanishni o'rgatadi. Biz o'smirlarni mediko – psixatrik ko'rinishini aytganimizda avvalo psixopatik xolatni aytib o'tishimiz to'g'ri keladi. Psixopatik – bu telbalik, telbanamo harakatlardir ya'ni shizofreniya. Biz yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda o'smirlarni rasman psixopatlar deb ham ayta olmaymiz. Chunki o'smirlar ham shizofereniya darajasiga bormaydi. Psixopatiyaning yengil ko'rinishlari faqat bolaning rivojlanishi bosqichidagina ayrim hollarda ko'zga tashlanadi. Bolalik, o'smirlik yoshidagi buzilishlar va u bilan o'xshash shaxs buzilishlarini qanday farqlash mumkin? – degan savol tug'iladi.

Shizoid buzilishlar – bolalik va o'smirlik yoshidagi shizoid o'zgarishlar diagnozi quyidagi sharoitlarda qo'yiladi.

- A) patsientni o'z tengqurlari ichida yaqin do'sti bo'lmasa
- B) umuman do'st orttirishga qiziqmasa.
- V) o'z tengqurlari bilan muloqotdan qoniqmasa
- G) oila a'zolari, boshqa kishilardan, mashg'ulotdan ochsa.
- D) guruhiy faollikka (hamroxlikdagi o'yinlar sport jamoasida ishtirok etishi) qiziqishning yo'qligi.



Ta'kidlash joizki qayd etilgan xususiyatlar ma'lum muddat saqlanadi yana

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

surunkali shikastlanish bilan bog‘liq depressiya oqibati bo‘lishi mumkin. Ular yolg‘izlikni yoqtiradilar lekin ularni ijtimoiy yolg‘izlik azoblamaydi, ammo o‘z yaqinlariga nisbatan yaqinlik bo‘ladi, norasmiy muloqotlarning talab qiluvchi sharoitlar (lager, internat hayoti) va ijtimoiy vaziyatlarning yoqtirmaydilar. Tengqurlari bilan o‘zлari bajarilishi kerak bo‘lgan ishlarni, o‘z ayblarini ham yuklab qo‘yadilar. Jur’atsizliklari bois har – xil bahonalar to‘qiydilar. Bu xarakter axloqiy shizoid tipiga mos keladi. Uning ilk ko‘rinishlari 2-2,5 yoshlarga to‘g‘ri keladi, ularning begonalardan qochishga intilishi, o‘zgalardan qo‘rqishlari va davdirashlari ammo oilaning eng yaqin kishilariga, oila a’zolariga bog‘lanib qoladi.

O‘smirlik yoshiga kelib bu xolat ularda jinsiy qiziqishlarning sekinlashuviga olib keladi.

A) xafagarchilikka asos bo‘lmagan narsalarga xam kulgi bo‘ldim deb qarashi, o‘z g‘ururini o‘zgalar oldida toptalishi, o‘zini “erga” urilgan deb qarashi va undan uyalishi, o‘zgalar tomonidan o‘zini xo‘rlangandek xis qilishi.

B) xali uni tanqid qilmasliklaridan oldin, yaxshisi ular bilan umunosabat o‘rnatmaslik

V) xo‘rlanishdan qo‘rqishi tufayli hammadan o‘zini chetga tortishi

G) aslida o‘zgalar tomonidan qabul qilinishini o‘ylash.

D) o‘z xatolaridan qayg‘urishi va muvaffaqiyatlarni kamsitish, o‘zini o‘zi past baholashidan azoblanishi va boshqa begonalar bilan kechadigan har qanday aloqadan qiynaladi atrofdagilar ularni “ortiqcha” deb o‘playdi va o‘smirlik davriga xos bo‘lgan giperkompeno‘iatsiya reaktsiyasi ularda uchraydi.

Ye) ota – ona yoki oila a’zolarining shahvoniy hayotga ichkilikka berilishini

Yo) oila a’zolari ichida sudlangan odamning uchrashi.

J) tengqurlarining salbiy ishlarga (haqorat qilishga, ichishga, chekishga, qo‘li egrilikka) o‘rgatishi va hakozo.

Z) madniy – ma’rifiy ishlab chiqarishi va jamoatchilikni kamchiliklari.

O‘smirlik – organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekislik bilan xarakterlanib bu davrda tananing intensiv tarzdagi rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro‘y beradi. Yurak va qon tomir xarakterlarida ham notekislik ro‘y beradi va u bolani

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

fe'lining o'zgaruvchan, dinamik va ba'zan noma'qulliklar va noqulayliklarni keltirib chiqaradi, bular albatta asab tizimiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bola tezda achchiqlanadigan yosh tormozlanishi yuz berganda anchagacha depressiya holatidan chiqmaydigan tushkunlikda ham qolishi mumkin. O'smir jismoniy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil jinsiy balog'at bo'lib u nafaqat psixik, balki ichki organlar faoliyatini ham belgilaydi. Shu bilan bog'liq holda ongli (ko'pincha ongsiz) jinsiy mayllar, shu bilan bog'liq noxush his – kamchiliklar fikrlar paydo bo'ladiki, bola ularni asl sababini ham tushunib yetolmaydi.

Psixik taraqqiyotning o'ziga xosligi shundaki u muttasil rivojlanib boradi, lekin bu rivojlanish ko'plab qarama – qarshiliklarni o'z ichiga oladi. Bu taraqqiyot tashkil etilgan o'quv faoliyati bola psixikasining muozanati va uning turli fikr o'ylaridan chalg'ishiga zamin yaratadi. Ayniqsa diqqat, xotira tafakkur jarayoni rivojlanadi. Ayni shu davrda o'smir mustaqil ravishda fikrlashga intila boradi. Chunki bu davrda u ko'proq o'z fikr o'ylari dunyosida mushohada qilishi, olam va uning sirlarini bilishga, nazariy bilimlarni ko'paytirishga intiladi. Buning sababi yana o'sha kattalikka o'tish bo'lib o'smirda o'ziga xos kattalik hissi paydo bo'ladi. Shuning uchun xam mакtabda berilgan mustaqillik va to'g'ri tashkil etilgan o'qish sharoitlari, samiyilik muhiti unda mustaqil fikrlashga katta imkoniyatlar ochishni va unda ijodiy tafakkurni rivojlantirish mumkin. Mantiqan fikrlashga o'rganish u esa unga o'zicha aqliy operatsiyalarni amalga oshirish tushunchalar va formulalar dunyosida harakat qilishga majbur qiladi. Bu o'ziga xos o'smirlik egosentrizimining shakllanishiga butun olam va uning qonunlari unga bo'ysunishidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Tibbiyot psixologiyasi" Toshkent 2010
2. B.N.Sirliyev, N.Ismoilova, I.M.Xakimova "Stress va agressiya" Toshkent 2014
3. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. T.-1995 yil
4. G`oziyev Ye. va boshq. Psixologiya muammolari. T.-O`qituvchi, 1996 yil